


79. To'g'ri to'rtburchak va kvadratning tomonlari xossalari

Yondosh mavzu:
arxitektura.


To'g'ri to'rtburchak, kvadrat,
qarama-qarshi tomonlar.



Maydonni to'ldirish uchun qaysi
bo'laklarni qo'yish kerak?




1. Rasmda Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi rejasini keltirilgan. Madrasa perimetri va ichki hovli perimetрini toping.



2. ABCD to'g'ri to'rtburchak yasang. Uning qarama-qarshi tomonlari uzunliklarini o'lchang. Tomonlari uzunliklari haqida xulosa chiqaring.



To'g'ri to'rtburchakning va kvadratning qarama-qarshi tomonlari uzunliklari teng.



$$AB = CD, \quad BC = AD.$$

3. Tomonlari 12 va 6 katakdan iborat to'g'ri to'rtburchak yasang. Uning tomonlari uzunliklarini santimetrlarda aytинг. To'g'ri to'rtburchakning perimetrini santimetrlarda toping.

4. Binoni ta'mirlash uchun devorlar maxsus qurilish to'ri bilan qoplandi. Agar bino devorining bo'yи 116 m, eni 60 m bo'lsa, necha metr to'r kerak bo'lgan?

79. To'g'ri to'rtburchak va kvadratning tomonlari xossalari



5. Qulay usul bilan hisoblang.

$$(67 + 55) + 33$$

$$(76 + 98) - 78$$

$$163 - (63 + 12)$$

$$96 - (19 + 56)$$

$$(28 + 56) + 44$$

$$(52 + 49) - 39$$

$$(29 + 37) - 37$$

$$108 - (68 + 15)$$

$$123 - (23 + 68)$$



6. Kichikroq o'lchov birligiga keltiring va hisoblang.

$$76 \text{ cm} + 3 \text{ dm } 5 \text{ cm} - 2 \text{ dm } 7 \text{ cm}$$

$$60 \text{ dm } 2 \text{ cm} - 4 \text{ m } 27 \text{ cm} + 1 \text{ m } 6 \text{ cm}$$

$$4 \text{ dm } 3 \text{ mm} - (3 \text{ cm } 4 \text{ mm} + 1 \text{ dm } 28 \text{ mm})$$

$$70 \text{ cm} - (3 \text{ dm } 2 \text{ cm } 8 \text{ mm} + 6 \text{ cm } 2 \text{ mm})$$



7. Uy qurish uchun birinchi kun 285 dona, ikkinchi kun esa birinchi kundagidan 165 dona ko'p g'isht olib kelindi. Agar 3 kunda 950 dona g'isht keltirilgan bo'lsa, uchinchi kun nechta g'isht keltirildi?



8. Taqqoslang.

$$x + 535 \quad \square \quad x + 524$$

$$543 + b \quad \square \quad b + 543$$

$$807 + y \quad \square \quad 804 + y$$

$$321 + t \quad \square \quad 321 - t$$

$$258 - z \quad \square \quad 300 - z$$

$$m - 130 \quad \square \quad m + 130$$



9. Tomonlari 8 cm va 4 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yasang. Tomoni to'g'ri to'rtburchakning kichik tomoniga teng bo'lgan kvadrat yasang. Kvadratning perimetri to'g'ri to'rtburchakning perimetridan qancha kichik?



10. Qulay usul bilan hisoblang.

$$(234 + 187) + 166$$

$$178 + (345 + 222)$$

$$(265 + 358) - 158$$

$$(482 + 199) - 382$$

$$935 - (135 + 422)$$

$$653 - (553 + 98)$$